

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XIDRALIYEVA ZOXIRA RISKULOVNA

O‘ZBEK TILINING IQON SHEVASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in Philological Sciences**

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna

O‘zbek tilining Iqon shevasi.....3

Хидралиева Зохира Рискуловна

Иканский говор узбекского языка25

Khidraliyeva Zokhira Riskulovna

Ikan dialect of Uzbek language49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XIDRALIYEVA ZOXIRA RISKULOVNA

O'ZBEK TILINING IQON SHEVASI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2853 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashirboyev Samixon

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich

filologiya fanlari doktori, professor

Musayeva Feruza To'raxonovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «11»
05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (257raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «1» 05 kuni tarqatildi.

(2023- yil «1» 05 dagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).



I.I.Adizova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida til va shevalarni areal o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, davrlar osha o‘z bag‘rida nodir durdonalarni saqlab kelayotgan milliy tilning asosi, adabiy tilning boyish manbayi bo‘lgan shevalarni lingvistik jihatdan ilmiy asosda tadqiq qilish, umumturkiy va dialektal xususiyatlarini ajratish, adabiy tilga munosabatini belgilash muhim vazifalardan sanaladi. Dunyo tilshunosligida til hodisalarining umumiyligi va xususiy jihatlarini aniqlash, leksik-semantik rivojini ko‘rsatib berish tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Shu bois, Iqon shevasining o‘zbek shevalari qatorida o‘g‘uz shevalari bilan umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash, uning adabiy til va boshqa shevalarga munosabatini yoritish zarurati dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida milliy til va uning shevalarini areal o‘rganish yuzasidan Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda boy tajriba to‘plangan, dialektologik va lingvistik atlaslarning klassik namunalari yaratilgan. O‘zbek dialektologiyasida ham shevalarni areal o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari mavjud, ammo ular juda kam miqdorni tashkil etadi. Ma’lumki, shevalarning areal tadqiqotlari uchun, avvalo, muayyan arealdagi shevaning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganib chiqilishi talab qilinadi. Shu ma’noda areal lingvistika tamoyillari asosida amalga oshirilgan ushbu tadqiqot jahon areal lingvistikasini muayyan darajada ashyoviy dalillar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Mustaqillikning keyingi davrlarida o‘zbek shevalarining o‘rganilishiga davlat ahamiyati sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi, o‘zbek shevashunosligida shu kunga qadar o‘rganilmagan shevalar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganildi, shevashunoslikning lingvistik geografiya sohasida jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Shu bilan birga barcha o‘zbek shevalarini fundamental qayta o‘rganish, xalq shevalari lug‘atini yaratish, dialektologik atlaslar yaratish galagini vazifalardandir. “... o‘zbek tilining ... shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash...”¹ zarur. Shu jihatdan, Janubiy Qozog‘istondagi o‘g‘uz o‘zbek shevalaridan biri bo‘lgan Iqon shevasining tor lokal areal sifatida o‘rganilishi, boshqa o‘zbek shevalarida uchramaydigan, turli ekstra- va introlingvistik xususiyatlarini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

¹Мирзиёев Ш. М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли // Халқ сўзи, 2019 йил 21 октябрь.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-son “O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bilan bog‘liq.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalari Y. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, S. Zufarov, Q. Muhammadjonov, F. Abdullayev, A. Yo‘ldoshev, K. Nazarov, M. Begaliyev, S. Nurullayeva, Z. Xolmedovalar tomonidan o‘rganilgan².

Iqon shevasi to‘g‘risida dastlab Y. D. Polivanov 1929-yilda sobiq SSSR Fanlar akademiyasining Axborotida maqola e’lon qilgan³.

Q. Muhammadjonov 1981-yilda e’lon qilgan monografiyasida Iqon shevasiga yo‘l-yo‘lakay to‘xtaladi. Bu haqda asarning kirish qismida: “...biz ularni ikkita (Chimkent va Turkiston) katta gruppaga ajratib o‘rgandik. Tekshirish obyektimiz ham shu shevalar bo‘lib, Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarining o‘g‘uz tip shevalari bizning vazifamizga kirmaydi”⁴, – degan jumlalar bilan chegaralanadi.

Q. Muhammadjonovning 1983-yilda e’lon qilgan monografiyasida esa o‘g‘uz tip shevalari ham tilga olinadi, lekin unda keltirilgan misollarning aksariyati Iqon shevasi xususiyatlarini to‘g‘ri aks ettirmaydi. Masalan, Turkiston guruh o‘g‘uz lahjasining Qarnoq, Iqon, Ibota kabi qishloq shevalarida⁵ tag‘, bag‘, sag‘ kabi so‘zlar tav, bav, sav tarzida qo‘llanishi qayd etiladi. Ammo keltirilgan asos faqat

² Поливанов Е. Д. Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд) // Известия. АН СССР, Сер. VII. – Л., 1929; Юдахин К. К. Некоторые особенности Карабулакского говора // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. Т. I. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 31-57; Юдахин К. К. Тексты. Карабулакский говор // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. Т. II. – Т.: Фан, 1961. – Б. 14-23; Зуфаров С. Ўзбек тилининг Сайрам шеваси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1966; Мухамеджанов К. М. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана. Дисс...докт. филол. наук. – Ташкент, 1988; Мұхаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондагы ўзбек шевалари (қорлук ва қипчоқ тип материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1981; Мұхаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондагы ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983; Абдуллаев Ф. Қарноқ шеваси фонетикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. – № 6. – Б. 16-22; Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978; Йўлдошев А. Манкент шевасида феълларнинг замон формалари // Ўзбек филологияси масалалари тўплами. – Тошкент, 1968. – Б. 16-25; Назаров К. Шимолий ўзбек шевалари таснифига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1969. – № 5; Бегалиев М. Ўзбек тили Корабулоқ шеваси. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Нуруллаева Ш. Туркистан қарлук тип шеваларидаги тўй маросими номлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2001; Холмедова З. Ўзбек тилининг Қарнок шеваси лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2005.

³ Поливанов Е. Д. Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд) // Известия. АН СССР, Сер. VII. – Л., 1929. – С. 526-537.

⁴ Мұхаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондагы ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 5.

⁵ Мұхаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондагы ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 11.

Qarnoq shevasigagina xos bo‘lib, Ikon, Ibota shevalarida qipchoq shevasiga xos *tav*, *bav*, *sav* so‘zlar mutlaqo qo‘llanmaydi.

Shuningdek, 1971-yilda chop etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”⁶da *Ikon* belgisi bilan 70dan ortiq so‘z berilgan, ammo ko‘pgina so‘zlar noto‘g‘ri tavsiflangan. Jumladan, *aşqaldaq* (22-bet) so‘zi “narvon” deb izohlangan. Ushbu so‘z shevada *a:şqultaq* shaklida qo‘llanib, narvonni emas, zinapoyani anglatadi. *känirčäk* (141-bet) so‘zi “burun suyagi” sifatida izohlangan, lekin shevada *käpirčäk* shaklida qo‘llanadi. *läjtä* – rapida (171-bet) so‘zi shevada *läptä* shaklida qo‘llanadi va h.k.

S. Nurullayevaning tadqiqotida Turkiston shahri va uning atrof qishloqlari, jumladan, Ikon shevasida iste’molda bo‘lgan to‘y marosimi nomlari ham o‘rganilgan⁷. Tadqiqotda Ikon shevasining o‘ziga xos leksikasi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan, lekin keltirilgan ashyoviy misollarda fonetik, grammatik, semantik kamchiliklar uchraydi.

Z. Xolmedovaning nomzodlik ishida ham Ikon shevasi va Qarnoq shevasi leksikasidagi ba’zi mushtarakliklar ko‘rsatilgan⁸. Ammo tadqiqotchi “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” materiallariga asoslanib keltirgan ba’zi namunalarda, yuqorida qayd etilganidek, so‘zlarning shakli yoki ma’nosini noto‘g‘ri talqin qiladi.

F. Musayeva “O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi” nomli monografiyasida o‘zbek shevalarida “milliy realiyalar” va “lakunarlik” haqidagi nazariy fikrlarni dalillashda, “olamning lisoniy dialektal manzarasi”ni yoritishda, Ikon shevasining leksik boyligidan unumli va o‘rinli foydalangan⁹.

Ikon shevasiga oid illyustrativ ma’lumotlarni T. Mamayevning asarida ham uchratish mumkin. Ushbu kitob lingvistik asar bo‘lmanligi sababli shevaga oid bir necha so‘zlarni sanab o‘tish bilan chegaralangan: *bidona* – bir dona; *bijaq* – bittagina; *eshi* – dugona; *to‘n kiyishgan o‘rtoq* – nikoh do‘sti; *oshqultoq* – pillapoya va h.k.¹⁰

Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek tili turkiy tillarning yirik uchta: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz etnik guruhlari asosida tashkil topganligi ta’kidlanadi. Ushbu tarkibda o‘g‘uz lahjasining Markaziy Osiyodagi areali o‘ziga xos bo‘lib, hozirgi Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston hududlarida amal qiladi. Shu jumladan, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga oid shevalar hozirgi Qozog‘iston Respublikasining Qarnoq, Ikon, Ibota, Qorabuloq, Qizilqishloq, Mankent, Oqsuv, Qoramurt aholi punktlarida ham tarqalgan. Garchand bu aholi punktlari boshqa shevalardan ajralib qolgan bo‘lsa-da, ayrim tadqiqotchilar ta’kidlaganidek¹¹, ular tanazzulga yuz tutmadi, balki o‘zining tarixiy va mahalliy xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Bunday shevalardan biri Ikon (o‘g‘uz) shevasidir. Shunisi xarakterlikni,

⁶ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – 409 б.

⁷ Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросими номлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 5.

⁸ Холмедова З. Ўзбек тилининг Қарноқ шеваси лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 86-90.

⁹ Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқики. – Тошкент: Фан, 2019. – 120 б.

¹⁰ Мамаев.Т. Икон ва иқонликлар. – Тошкент: Uzinkomentr, 2003. – Б. 66-67.

¹¹ Eltazarov J. Об огузских говорах с угрозой исчезновения в Южном Казахстане. // TDD/ JoFEL Winter 2013. – С. 276-307.

janubiy Qozog‘istondagi o‘g‘uz shevalari boshqa o‘g‘uz lahjasini shevalari bilan asosiy til xususiyatlari jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ulardan farqli xususiyatlarga ham ega. Shu sabab, o‘zbek tilining Iqon shevasi tavsifiy, qiyosiy, qisman diaxron aspektida ilk bor tadqiq qilindi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek folklori va shevalarining areal tadqiqi” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Iqon shevasidan yozib olingan dialektal matnlar asosida shu shevaga xos bo‘lgan fonetik, morfologik va leksik-semantik xususiyatlarni tahlil qilish va shu arealdagi qarluq hamda boshqa o‘g‘uz shevalariga munosabatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Iqon shevasidagi unli va undosh fonemalarning artikulatsion-akustik xususiyatlari, har bir fonemaning so‘z tarkibidagi o‘rni, fonetik jarayonlar, unli fonemalarning miqdoriy belgilarini aniqlash, undoshlarning sifat tahlilini amalga oshirish;

Iqon shevasida birlamchi cho‘ziq unlilarning qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlash;

Iqon shevasida singarmonizm qonunining amal qilishi hamda buzilish holatlariga oydinlik kiritish;

Iqon shevasidagi grammatik kategoriyalarga oid so‘z shakllarining xususiyatlari, ularning adabiy tildan farqli va o‘xshash jihatlarini ko‘rsatib berish;

Iqon shevasiga xos so‘zlarning “Devonu lug‘atit turk”, “Navoiy asarlari lug‘ati” asosida qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

Iqon shevasi leksikasining o‘zbek adabiy tiliga munosabatini belgilash;

Iqon shevasiga xos leksik birliklar, ularning semantik turlarini ajratish.

Tadqiqotning obyekti tadqiqotchining Iqon shevasidan respondentlar vositasida to‘plagan materiallaridir.

Tadqiqotning predmeti Iqon shevasining fonetik, morfologik hamda leksik-semantik xususiyatlari tahlili va boshqa o‘zbek shevalaridan farqli tomonlarini tavsif etish masalasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy hamda areal tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Iqon shevasi Janubiy Qozog‘iston (Turkiston) viloyatidagi va O‘zbekiston Respublikasidagi o‘zbek shevalaridan lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turishi, mazkur sheva ilk bor monografik tarzda tekshirilib, uning o‘ziga xos dialektal xususiyatlari aniqlangan, shu arealdagi qarluq, qipchoq shevalari bilan munosabati asoslangan;

Iqon shevasi Turkiston arealida o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga aloqadorligi aniqlangan va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan sheva to‘g‘risidagi yanglish

ma'lumotlarga aniqlik kiritilib, Iqon shevasigagina xos dialektal leksika va dialektal semantika o'zbek adabiy tili bilan qiyoslangan holda uning o'rni ochib berilgan;

Iqon shevasining o'ziga xos fonetik xususiyatlari: unlilar tizimida 9 unli fonema amal qilishi tasdiqlangani, birlamchi cho'ziq unlilarning boshqa o'g'uz shevalaridan farqli ravishda, faqat birinchi bo'g'inda emas, balki keyingi bo'g'indarda ham kela olishi, shevadagi har bir fonemaning o'rni, fonetik qonun va jarayonlarning Iqon shevasi uchun xos bo'lgan xususiyatlari isbotlangan;

Iqon shevasi morfologik tizimi, ayniqsa, egalik va kelishik shakllari kesishgan o'rinlar, so'z shakllarida qatnashadigan Iqon shevasigagina xos affiks variantlari va ularning qo'llanishidagi qonuniyatlarini dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Iqon shevasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot o'zbek dialektologiyasining shimoliy o'zbek shevalari o'g'uz guruhiga oid ma'lumotlariga aniqlik kiritgan;

"O'zbek dialektologiyasi" bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalardagi Iqon shevasi faktlarining ilmiyligi takomillashtirilgan, haqqoniyligi ta'minlanib, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

tadqiqot nafaqat "O'zbek dialektologiyasi", balki "Areal lingvistika" uchun ham ahamiyatli bo'lib, uning nazariy asoslarini amaliy jihatdan isbotlashga imkoniyat yaratgan;

tadqiqot amaldagi "Folklorshunoslik va dialektologiya" bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisligida maxsus kurs sifatida o'qitilishi uchun qimmatli ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan ilmiy xulosalarning tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tahlillar bilan asoslanganligi va ularning amaliyotga joriy etilganligi, shevaga xos leksik birliklarga o'zbek tilining tabiatidan kelib chiqib yondashilgani hamda amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada to shu vaqtgacha monografik planda o'rganilmagan Iqon shevasining fonetikasi, morfologiyasi va leksikasi bo'yicha to'liq ma'lumot berilgani, Iqon shevasi xususida adabiyotlarda davom etib kelayotgan ayrim noto'g'ri ma'lumotlarga aniqlik kiritilgani hamda o'zbek dialektologiyasi shu sheva bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan to'ldirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Iqon shevasi bo'yicha to'plangan materiallar to'laligicha o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, Iqon shevasi materiallari Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalarida o'ziga xos o'rinni tutishi to'g'risida ishonchli material sifatida xizmat qilishi, mavzu doirasida oliv o'quv yurtlari talabalariga maxsus kurs va seminarlar o'tishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilining Iqon shevasi tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Iqon shevasining leksik tarkibi, adabiy tilda sinonimi bo‘lgan so‘zlar hamda muqobili bo‘lmasan so‘zlar bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2018-2019-yillarda bajarilgan PZ-2017-1024335 raqamli “O‘zbek shevalarining lingvokulturologik tadqiqi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida “O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi” monografiyasini nashr qilishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 13-dekabrdagi 04/1-3423-son ma’lumotnomasi). Natijada Iqon shevasi leksikasiga oid dialektal so‘zlar monografiyaning “O‘zbek shevalarida milliy realiyalar va lakunarlik” (68-79) paragrafida milliy realiyalar va lakunalar haqidagi nazariy fikrlarning illyustrativ misollar bilan dalillanishiga xizmat qilgan;

Iqon shevasiga xos bo‘lgan eng muhim lingvistik xususiyatlar, dialektal so‘zlarning leksik-semantik tahlili, ularning muayyan hududga xoslanganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan dissertant tomonidan tayyorlangan 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “O‘zbek dialektologiyasi” o‘quv qo‘llanmasini nashr qilishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 17-yanvardagi 04/1-100-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanmaning “Shevalarga xos matnlarning leksik xususiyatlari”, “Dialektal so‘zлarni mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish”, “O‘zbek shevalarida so‘z yasalishi”, “Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlari” kabi mavzulari faktik materiallar bilan boyitilgan;

Iqon shevasida qo‘llangan iboralar, maqol va matallarning lingvistik jihatdan tahlili, shu hudud vakillarining dialektal lisoniy manzarasi va dunyoqarashi, shu xalqqa xos madaniyat belgilarini ham aks ettirishiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Qozog‘iston o‘zbek etnomadaniyat birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati faoliyatida foydalanilgan (Qozog‘iston o‘zbek etnomadaniyat birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyatining 2022-yil 20-avgustdagи 60-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotdan olingan materiallar qozog‘istonlik o‘zbeklarning qadim va boy tarixga ega beباho merosini (shevasini) tadqiq va targ‘ib qilishda, milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan tilimizning o‘z shakl-u shamoyili saqlangan holda kelajak avlodga yetib borishini ta’minalashga xizmat qilgan;

O‘zbek tilining asl tabiatni, jozibadorligini o‘zida to‘la namoyon etgan shevalar, uning o‘zbek tili leksikasi taraqqiyotidagi o‘rnini, ayniqsa, xalq maqollari, iboralarning til birligi sifatida jonli nutqda keng qo‘llanishi, nutq madaniyatini oshirish omili hisoblanishi borasidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalni tomonidan efirga uzatilgan “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot” radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2022-yil 23-noyabrdagi 04-36-1946-sonli ma’lumotnomasi). Natijada radioeshittirishning ilmiy-ommabopligi ta’milangan, tilning qadriyat sifatidagi o‘rnini yoritishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4ta xalqaro, 4ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7ta maqola, jumladan, 3tasi respublika, 4tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 175 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliшhlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Iqon shevasining fonetik xususiyatlari**" ga bag'ishlangan. Birinchi bobning birinchi bo'limi "*O'zbek tilining Iqon shevasi unlilar tizimi*" deb nomlanib, unda Iqon shevasi fonetikasining rang-barang xususiyatlari, uning o'zbek shevalari qatorida o'g'uz shevalari bilan umumiyligi va xususiyligi, har bir fonemaning funksionalligi, ya'ni uning shevadagi xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Y. D. Polivanov Iqon shevasining unlilar tizimida miqdor va sifat jihatdan farqlanadigan 18 ta unli fonema mavjudligini qayd etgan¹². Shundan u 9 ta: *e*, *i*, *ε* (*ɛ*), *ü* (*Υ*), *ö* (*ø*), *a*, *u*, *o* fonemalarini sifat jihatdan farq qiladi, deb ko'rsatadi. Ishimizda 9 ta fonema to'g'risida fikr yuritishni va Y. D. Polivanov tavsifi bilan qiyoslab o'rghanishni ma'qul ko'rdik. *e* unlisi old qator, o'rta keng, lablanmagan unli. Ushbu unli faqat dastlabki bo'g'inda keladi: *er*, *et*, *jem*, *jer*, *čet* kabi. Shuni ta'kidlash lozimki, shevada *er*, *et* so'zlarining *e:r*, *e:t* omonimik varianti bo'lib, birinchisi *er* ~ erkakni, *et* ~ go'shtni, ikkinchisi *e:r* ~ erta(lab), *e:t* ~ ayt(moq) so'zlarining shevadagi talaffuzidir. Xorazm o'g'uz shevalarida *er* so'zidagi *e* unlisi *ä* unlisi bilan almashadi (*Är baššinä i:š čüssä ädik vülä su: gečär*)¹³.

Ushbu unlining cho'ziq varianti *e:* unlisi. Y. D. Polivanov bu unlini *me:man*, *me:rap* so'zlarida keltirgan. Bu unlining o'mni birinchi bo'g'in bo'lganligi uchun ham (pozitsiyasi mustahkam bo'lgan *e* unlisi to'g'risida gap boradi), u aksariyat o'rnlarda cho'ziq talaffuz etiladi: erta ~ *e:r*, aytmoq ~ *e:t*, besh ~ *be:š*, kech ~ *ke:š*, *te:z*, bez ~ *be:z*, dugona ~ *e:š*, *be:l*, *te:räk*,sovchi ~ *e:lči*, *e:šik*, beshik ~ *be:šik*.

Shuningdek, *e* unlisining birinchi bo'g'inda *ä* unlisiga o'tishi, ya'ni *e* ~ *ä*: tovush mosligi kuzatiladi: *kel* ~ *kä:š*, *etak* ~ *ä:täk*, *elak* ~ *ä:läk*; *e* ~ *i* mosligi: *ber* ~ *bi*, *ye* (moq) ~ *ji*, *ola ber* ~ *a:la bi*, ayta *ber* ~ *e:dä bi* kabi qo'shma fe'llarning ikkinchi komponentida *i* unlisi juda qisqa talaffuz qilinadi va aksincha: *borgan edi* ~

¹² Поливанов Е. Д. Образцы неиранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка // Известие Академии наук СССР, Сер. VII. – Л., 1929. – С. 528.

¹³ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 22.

baryani:di, ko‘rar edi ~ *körä:ri:di* kabi qo‘shma fe’llarning ikkinchi komponentida *e* unlisi *i*: unlisiga o‘tadi; *e* ~ *ö* mosligi: etik ~ *ö:tik*, echki ~ *ö:ski*, teshik ~ *tö:šik* kabi xususiyatlari o‘rganilgan. Dissertatsiyada shevadagi *i*, *e* (*ε*), *ü* (*Y*), *ö* (*ø*), *ü* (*ω*), *a*, *u*, *o* unlilari ham shu shaklda bayon qilingan.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi “*Iqon shevasining undoshlar tizimi*” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda Iqon shevasi undoshlar tizimi adabiy til va boshqa o‘zbek shevalari bilan qiyoslab o‘rganilgan. Undoshlar son va sifat jihatdan boshqa o‘zbek shevalaridan farq qilmasa-da, muayyan o‘rinlarda o‘zgachaliklar ham mavjudligi aniqlandi. Masalan, *h* undoshi shevada mavjud, lekin boshqa undoshlar bilan fonetik moslik hosil qila oladi:

h ~ *j* mosligi. Bu hodisa so‘z o‘rtasida ko‘proq kishi ismlarida qayd qilinadi: *Shohida* ~ *Ša:jda*, *Zohid* ~ *Za: jit*, *Vohid* ~ *Va: jit* kabi. Shuningdek, o‘zlashgan so‘zlearning turli o‘rinlarida fonetik moslik hosil qiladi: *befahm* ~ *be:päjim*, *tasbeh* ~ *dä:sbäj*.

mahsi ~ *mä:ssi*, *mahkam* ~ *mä:kkäm*, *lahza* ~ *lä:zzä* kabi so‘zlarda to‘liq assimilatsiyaga uchraydi;

ba’zi so‘zlar boshida *h* tovushi ortadi: *aroq* ~ *hara:q*, *ayvon* ~ *häjva:n*, *arra* ~ *hä:rrä*, *arafa* ~ *hä:räpä*, amma ~ *hä:mä* kabi. M. Qoshg‘ariyninig “Devonu lug‘otit turk” asarida so‘z boshida *h* tovushining orttirilishi o‘g‘uzlarga xosligi ta’kidlanadi¹⁴, lekin bu xususiyat Turkiston qarluqlari shevasiga ham xos. Ehtimol, u o‘g‘uz shevalari ta’sirida vujudga kelgandir; ayrim so‘zlearning o‘rtasi va oxirida *h* tovushi tushadi va ikkilamchi cho‘ziqlikni hosil qiladi: *Muhammad* ~ *Mä:mät*, *Shuhrat* ~ *Shö:rät*, *Ahmad* ~ *Ä:mät*, *tuhmat* ~ *tö:mät*, *gunoh* ~ *güna:* kabi.

Birinchi bobning “*Iqon shevasida fonetik qonuniyatlar*” deb nomlangan uchinchi bo‘limida turkiy tillarning tabiatini bilan bog‘liq bo‘lgan cho‘ziqlik hamda singarmonizm hodisalari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Davrlar o‘tishi bilan tarixiy jarayon taqozosi bilan aksariyat lahja va shevalar fonetikasi o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, Iqon shevasida fonetik qonuniyatlarining ancha yaxshi saqlaganligini kuzatish mumkin.

B. A. Serebrennikov va N. Z. Gadjiyevalarning qayd etishicha, birlamchi cho‘ziqlik hodisasi qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, keyinchalik til taraqqiyoti natijasida aksariyat turkiy tillarda o‘zining xususiyatini yo‘qotgan va hozirda yoqut, turkman, xalaj tillarida saqlanib qolgan¹⁵. Afsuski, bu o‘rinda o‘zbek tili shevalarida ham mavjudligi tilga olinmaydi.

Ilmiy manbalarda cho‘ziq unlilar, asosan, birinchi bo‘g‘inda uchrashi qayd etilgan. Iqon shevasidan to‘plangan materiallar bu fikrning to‘g‘riligini inkor etmaydi, lekin shevada birlamchi cho‘ziq unlilar barcha turkum so‘zlarida va barcha bo‘g‘inlarda uchrashi aniqlandi. Aksariyat unlilar ma’no farqlovchi xususiyatlarini saqlab qolgan: *a* – *a:* *at* (strelayay) ~ *a:t* (ism), *bar* (bormoq) ~ *ba:r* (mavjudlik), *žaj* (o‘rin) ~ *ža:j* (sekin), *qaš* (qoch) ~ *qa:š* (qosh); *ä* – *ä:* *kär* (kermoq), *kä:r* (hushi); *u*

¹⁴ Девону луғатит турк. I том. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 136.

¹⁵ Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – М.: Наука, 1986. – С. 8-9.

– **u:** *uš* (uchmoq) ~ *u:š* (chiroq), *tut* (tutmoq) ~ *tu:t* (tut daraxti); **ö – ö:** *kön* (*ko:nmoq*) ~ *kö:n* (charm); **i – i:** *qiz* (qizimoq) ~ *qi:z* (qiz) va b.

F. Abdullayev “Qarnoq shevasi fonetikasidan” nomli maqolasida: “Xorazm o‘g‘uz shevalarida cho‘ziqlik asosan ot kategoriyasidagi so‘zlarda uchraydi, fe’l turkumidagi so‘zlarda uning tarqalishi nihoyatda cheklangan. Hatto, cho‘ziqlikka ega bo‘lgan unlisi bor otlardan fe’l yasalganda ham unlining cho‘ziqligi zaiflashadi va oddiy cho‘ziqlikka ega bo‘lgan unliga teng bo‘ladi”,¹⁶ – deb yozadi. Biz yuqorida keltirgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, Iqon shevasida birlamchi cho‘ziqlik deyarli barcha so‘z turkumlarida uchraydi. Xorazm shevalaridan farqli o‘laroq, cho‘ziq unli mavjud bo‘lgan otlardan fe’l hosil qilinganida ham yasama so‘z cho‘ziqlikni saqlab qoladi: *ti:zä* ~ *ti:zälädi*, *qa:n* ~ *qa:nadï*, *ba:la* ~ *ba:laladï*, *mo:jün* ~ *mo:jünnadï*, *i:š* ~ *i:šlädi*, *a:q* ~ *a:γardi*, *ba:j* ~ *ba:jüdï*, *a:t* ~ *a:dadï*.

Singarmonizm. Singarmonizm hodisasi turkologiyada ham, o‘zbek tilshunosligida ham atroflicha o‘rganilgan.

Iqon shevasida palatal singarmonizm keng tarqalgan bo‘lib, ikkinchi va undan keyingi bo‘g‘inlarda ham to‘liq amal qiladi. Masalan: *oyi* ~ *a:ja*, *bobo* ~ *ba:ba*, *chigirtka* ~ *čö:kirtkä*. Shevada boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarining ham aksariyati singarmonizmga bo‘ysunganligini kuzatish mumkin: *sa:ndiq*, *a:vlat*, *mozor* ~ *maza:rat*, *qassa:p*, *sa:daqa*, *sa:bür*, *a:šiq*, *a:qibat*, *a:dat* va boshqalar.

Labial singarmonizm. Iqon shevasida lab garmoniyasi oz bo‘lsa-da, uchraydi, masalan: *tuynuk* ~ *tü:ndük*, *kuyov* ~ *küjöv*, *qo‘ng‘ir* ~ *qoñur*, *turli* ~ *türlük*, *burun* ~ *murun*, *doim* ~ *nuqul*, *hayvon* *shoxi* ~ *münqüz*, *g‘am*, *tashvish* ~ *kö:jnük*, *ko‘ngli* ~ *kö:ηnü*, *ko‘zing* ~ *kö:züñ*, va boshqalar. Lab garmoniyasining uchinchi bo‘g‘inda amal qilishi oz bo‘lsa-da, mavjud: *indinga* ~ *bü:rsügiün*, *musht* ~ *ju:duruq*, *qazish* ishlarida ishlatiladigan uchli tesha ~ *qu:šmurun*, *shirguruch* ~ *sü:rgürüüš*, *bu:lduruq* (cho‘l qushi), *musht* ~ *juduruq* kabi.

Misollardan ko‘rinadiki, birinchi bo‘g‘inda qanday lab unlisi kelsa, ikkinchi bo‘g‘inda ham shunday xarakterdagi unli qo‘llanadi, jumladan, *ü-ü*, *u-u* yoki *ö-ö*, *o-o*, *o-u*, *ö-ü* ko‘rinishida uyg‘unlashadi.

Davrlar o‘tishi bilan tarixiy jarayon taqozosi bilan shahar shevalarida o‘z kuchini yo‘qotgan singarmonizm qonuni Iqon shevasida hamon yaxshi saqlangani va hozirda ham amalda ekanligini kuzatish mumkin. Shuningdek, shevada singarmonizm buzilish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, bir variantli affikslarda: *sendek* ~ *se:ndaq*, *baloday* ~ *bä:lädaq*, *itdek* ~ *i:ttaq*, *devdek* *katta* ~ *de:vdaq* *kättä*; *uydagi* ~ *ö:jda:yï*, *ko‘chadagi* ~ *kö:čäda:yï*; *qiziniki* ~ *qi:ziniki*, o‘g‘liniki ~ *o:yliniki*. Ba’zi o‘zlashgan va qo‘shma so‘zlar ham singarmonizmga bo‘ysunmaydi *tilvizo:r*, *gumroh* ~ *gü:mra:*, *sochiq* ~ *däsmä:l*; *shakar* ~ *qu:mšäkär*, *ko‘kchoy* ~ *kö:kča:j* kabi.

Ishning ikkinchi bobi “**Iqon shevasining morfologik xususiyatlari**”ga bag‘ishlangan bo‘lib, shevada so‘z turkumlari tarkibidagi so‘z shakllari, ularning tarkibiy xususiyatlari, so‘z turkumlarining ifoda qilinishidagi adabiy tilga xos bo‘lmasan holatlar, asos va affikslarning qo‘shila olish imkoniyatlari o‘rganilgan.

¹⁶Абдуллаев Ф. Карнок шеваси фонетикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1965. – № 6. – Б. 18.

II bobning “*Ot turkumiga xos shakllar*” nomli birinchi bo‘limida Iqon shevasida otning ko‘plik, egalik, kelishik shakllari haqida fikr yuritilgan. Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarida *-lar* affiksining *-lar*, *-lär*, *-dar*, *-där*, *-tar*, *-tär*, *-nar*, *-när*, *-är* variantlari mavjud bo‘lib, ular turli fonetik pozitsiyalarda qo‘llanadi¹⁷. Q. Muhammadjonov “Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarining o‘g‘uz va qipchoq tiplarida faqat z undoshi bilan bitgan o‘zaklarga ko‘plik affiksining *-dar* // *-där* shaklida qo‘shilishi haqidagi ma’lumotni keltiradi va mazkur hodisa Suzoq, Cho‘loqqo‘rg‘on, Qarnoq, Iqon, Boboyqo‘rg‘on qishloq shevalarida mavjud bo‘lib, Turkistondan Chimkent tomon yo‘nalishda susayib borishini qayd qiladi”¹⁸. Vaholanki, Iqon shevasida z undoshi bilan tugagan o‘zaklarga ko‘plik formasining *-dar* // *-där* shakli mutlaqo qo‘shilmaydi. Masalan, *Qi:zlaya e:tti; kü:zlärgä ba:rip* kabi. Iqon shevasida esa *-dar*, *-där*, *-tar*, *-tär* variantlari qo‘llanmaydi. Shevada ko‘plikning faqat *-lär*, *-när*, *-lar*, *-nar*, *-är* variantlari qo‘llanishi aniqlandi: *kö:cälär*, *ö:jlär*, *ba:llar*, *a:yamnar*, *jÿyinnar*, *kä:linnär*, *hä:mämnär* kabi.

u, bu, šu (kishilik, ko‘rsatish) olmoshlari *-lar* ko‘plik shaklini olganda, shevada o‘ziga xos xususiyat ko‘rinadi. Mazkur olmoshlar qo‘sh ko‘plikda ishlatiladi: *u+lar+lar* < *ulallar*, *bu+lar+lar* < *bulallar*, *shu+lar+lar* < *šulallar* tarzida. *Ulallarni qajtip kö:rgäjo:qma. Hä:mmä i:šni qilado:n šulallar-da. Bulallar e:tkäniñni qïma:jd(i)*. Qo‘shko‘plilik jihatidan Qorabuloq va Iqon shevalari umumiylikka ega¹⁹, lekin ularning qo‘llanishi, ya’ni morfologik-fonetik o‘ziga xosligi bilan farqlidir.

Egalik kategoriyasi. Ma’lumki, egalik shakllarining II shaxsida adabiy tilda va aksariyat o‘zbek shevalarida *-η* // *in//iñ* va *-un//iñ* variantlari ham bor²⁰. Ushbu shakllarning qo‘llanishida Iqon shevasigagina xos bo‘lgan xususiyat qayd qilinadi, ya’ni II shaxsda unli bilan tugagan so‘z bilan egalik affiksi o‘rtasida *j* undoshi orttiriladi: *Nu:rdi:n äkäjiñ qï:zï, ini:jiñ i:ši, ba:lajïñ ba:lasi*. Bunday qo‘llanish kelishikning belgisiz qo‘llanishini ham ta’minlaydi.

Shuningdek, shevada so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi suhbat jarayonida: Uyda kim bor? – deb so‘ralsa, axborot beruvchi (o‘ziga qarashli oila a’zolari va qarindoshlar haqida) ma’lumot berganda adabiy til va boshqa o‘zbek shevalaridan farqli ravishda I shaxs *-m*, *-im* egalik affikslarini qo‘llash zarur bo‘lgan o‘rinda II shaxs *-η*, *-iñ* egalik affikslarini qo‘llab, javob beradi:

Axborot oluvchi – begona shaxs	Axborot beruvchi
<i>A:jañ kä:dinä?</i> – Oying keldimi?	<i>A:jañ bajo: kä:gän.</i> – Oyim allaqachon kelgan.
<i>Dä:däñ ni qilje:tti?</i> – Dadang nima qilyapti?	<i>Dä:däñ i:štä.</i> – Dadam ishda.
<i>Ba:bañ qa:nii?</i> – Bobong qani?	<i>Ba:bañ uxlaje:tti.</i> – Bobom uxlayapti.

¹⁷ Мұхаммаджонов К. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 5.

¹⁸ Мұхаммаджонов К. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 17.

¹⁹ Решетов В. В. ва б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962. – Б. 225.

²⁰ Решетов В. В. ва б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 143-144; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – В. 49.

Kelishiklar. Iqon shevasida kelishik shakllari adabiy til kabi oltita kelishik shakliga ega. Ular quyidagilar:

Qaratqich kelishigi. Iqon shevasida singarmonizm qonuni amal qilganligi bois qaratqich kelishigining -niŋ, -niiŋ, -iŋ, -iiŋ, -uŋ, -n variantlari qo'llanadi:

-iŋ: *biziŋ ö:j, siziŋ ma:l, inimiŋ ba:laſi, siŋnimiiŋ ba:jii. Ba:yda: si:rıŋ ša:xiiya ursa:ŋ, ta:yda: si:rıŋ tujayi ſirqirajdi* (Bog‘dagi sigirning shoxiga ursang, tog‘dagi sigirning tuyog‘i zirqiraydi).

-iiŋ: *To:qqiž qii:ziiŋ to:lyayi bi kä:di.* (Juda ko‘p ishning bir paytda tiqilinch bo‘lishi).

-uŋ: *Ü:niiŋ ö:ssi//ö:ssi* (Ovozing o‘chsin). *Kümün qii:zisa?* (Kimning qizisan?)

-uŋ: *Quduŋuŋ i:čigä čü:šüp ke:tkänsä:nä, kö:rimmäjsä.*

Shevada *u*, *bu*, *šu* ko‘rsatish olmoshlariga qaratqich kelishigining -n varianti qo‘shiladi, bu affiks varianti nutqda “-m” variantiga o‘tishi ham mumkin. Masalan: Un(m) biläm sö:lläšmägänimä ra:sa o:dii (U(ning) bilan gaplashmaganimga ko‘p bo‘ldi). Bun(m) biläm e:dišip a:bro ta:pmajsa (Bu(ning) bilan aytishib, obro‘ topmaysan). Šun(m) biläm Pa:tmanii qa:jtiiп kö:rgäjo:qma (Shuning bilan Fotimani qaytib ko‘rmadim).

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi shakllarining o‘zbek tili va uning shevalarida -ni, -nii, -di, -di, -ti, -ti, -i, -ii, -n variantlari mavjud²¹. Iqon shevasida esa tushum kelishigining -ni, -nii variantlari qo'llanadi.

-ni, -nii: *Ba:lanii ja:šdin, xa:tinnii ba:šdin. Kö:krägini a:ndaba bilan su:vayan* (Hech bir ishga aqli yetmaydigan, farosatsiz). *Je:tim ö:z na:niiñ je:jdi, kiși tü:rtkisini ä:štädi* (Yetim o‘z mehnati bilan topgan halol nonini o‘zgalar minnati bilan yeydi).

Tushum kelishigining -n varianti asosiy shakllardan biri sifatida turkiy tillarda qadimdan qo'llanib kelgan²². A. Ishayev Iqon shevasida ham tushum kelishigi affiksining -n varianti qo‘llanganligi haqidagi ma'lumotni keltiradi²³. Haqiqatan ham, -n shakli shevada xalq og‘zaki ijodi asarlari tilida yo‘qlovlari, lapar va terma qo‘shiqlarda saqlanib qolmoqda:

Me:ma:n kä:sä, qo:j semizin so:jdırıp // Me:ma:n qiiyan žigärim;

Je:tim – je:tim de:diŋnä:jdi // Je:tim na:niiñ e:diŋnä:jdi. (Sheva folkloridan).

Lekin jonli so‘zlashuvda, ya’ni shevada ushbu shakl muomalada yo‘q.

Q. Muhammadjonov tushum kelishigining assimilativ formalari Toshkent tip shevalardagidek sistemali bo‘lmasa-da, ma’lum fonetik pozitsiyada Iqon shevasida ham uchrab turishini qayd etadi: *özimmi žajümmijäm berämä uña /Iqon/*²⁴. Ammo bu fikr asosli emas. Avvalo, Q. Muhammadjonov Iqon shevasini maxsus o‘rganmagan, qolaversa, unga yondosh Turkiston shevasida ham u keltirgan misol

²¹ Abdurahmonov G‘.va b. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2008. – B. 87; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 51.

²² Abdurahmonov G‘. va b. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2008. – B. 88.

²³ Ишаев А. Ўзбек шеваларида қаратқич ва тушум келишикларининг формалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1981, №2. – Б. 23-24.

²⁴ Мухаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 31.

o‘z tasdig‘ini topmadi. Tushum kelishigining assimilativ shakllari Iqon shevasida sporadik ravishda ham uchramadi.

Jo ‘nalish kelishigi. Shevada jo‘nalish kelishigining -gä //ya // kä //qa //ä //a variantlari mavjud bo‘lib, asosning xususiyatiga ko‘ra affikslar tanlanadi.

-gä: ža:nii i:čigä siiyma:jdi. Zö:rägä e:diškä bä:tim čidayajo:q.

-ya: Tu:zini ičip, tu:zluviya tüpürmä. Na:nya ma:j basip je:di. İmtilyan iškä, ta:rtiňyan ta:šya. I:t i:tkä saladï, i:t qujruyiya.

-ä // a affiksi Xorazm og‘uz shevalaridan farqli tarzda, faqat I va II shaxs egalik qo‘shimchalarini olgan otlarga qo‘shiladi.

-ä affiksi old qator unlili asoslarga qo‘shiladi: Tilimä tavba, ti:šimä tavba. I:timä ha:r, pišigimä na:müs.

-a affiksi orqa qator unlili asoslarga qo‘shiladi: Äzi:zä xa:lama ni degän a:žiq sö:z e:tti. O:yliňa kümün qii:zini ä:ppe:gänsä? Ajayiňa ba:γ, jürägiňä da:γ. Išta:nüma pišik sa:dï.

Olmoshlar jo‘nalish kelishigida turlanganda o‘ziga xos kuchli fonetik o‘zgarish – sinerezisga²⁵ uchraydi. Masalan: Sa: däm bärjätti ba:la (Bola senga yordam beryapti). Ma: he:škiümün minnäti kä:rägi jo:q (Menga hech kimning minnati kerak emas). Ke: ča:qırıyan o:sa, še: bar (Qayerga chaqirgan bo‘lsa, shu yerga bor). Be: kä:gäniň bä:ri čä:ltik bilämö:v (Bu yerga kelganlarning barchasi maqtanchoq, shekilli). Yuqoridagi qalin harflar bilan berilgan so‘z shakllari belgisiz jo‘nalish kelishigi shaklida bo‘lib, uning mavjudligini unlining cho‘ziqligi anglatib turadi. Iqon shevasida ma:, sa: shakllarining manya, sanya variantlari ham qo‘llanadi, bu jihatdan Xorazm o‘g‘uz shevalari bilan umumiylukka ega: Manya ni: ži:n u:rdi, bilmä:jmä (Menga nima jin tegdi, tushunmayapman).

O‘rin payt kelishigi: Shevada o‘rin-payt kelishigining -dä // da, -tä // ta shakllari mavjud bo‘lib, singarmonizm qonuniga ko‘ra asosning xususiyatiga qarab birikadi: Kä:ndä (mo‘rida) kältäk je:dim, to:xitqada (o‘choq og‘zida) to:qmaq. Ä:kkändä jo:q, tikkändä jo:q, xırma:nda ha:zir. I:štä kö:rimmäjdi, a:šta birinči.

Chiqish kelishigi. Iqon shevasida chiqish kelishigi affiksining ushbu fonetik variantlari qo‘llanadi: -din, -dïn, -tin, -tïn. Bu jihatdan Turkiston shevasi bilan umumiylukka ega. Masalan, Qadalyan ža:jidin qa:n a:ladi. Ba:qiidin to:yyan Ba:qi o:majdi, Sa:qiidin to:yyan Sa:qi o:majdi (Boqidan tug‘ilgan farzand Boqi bo‘lmaydi, Soqidan tug‘ilgan farzand Soqi bo‘lmaydi). Ammo, bu xususiyat Xorazm o‘g‘uz shevalari uchun xarakterli emas. Xorazm shevalarida bu o‘rinda barcha singarmonistik variantlarda a, ä unlili affikslar ishtirok etadi²⁶.

Chiqish kelishigining -din, -dïn, -tin, -tïn shakllari eski o‘zbek tilida asosiy shakl sifatida keng iste’molda bo‘lganligi, “Qutadg‘u biling” va “Devonu lug‘atit turk” asarlarida ham, asosan, shu shakllar qo‘llanganligi qayd etilgan²⁷.

II bobning ikkinchi bo‘limida “*Sifat, son, olmosh va ravish so‘z turkumlariga xos shakllar*”ning Iqon shevasida o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

²⁵ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 131.

²⁶ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 149.

²⁷ Abdurahmonov G. va b. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – B. 103.

Sifat. Shevada adabiy til va boshqa o‘zbek shevalaridan kichik fonetik xususiyatlari bilan farqlanadigan sifatlar bilan birga shevagagina xos bo‘lgan sifatlar ham mavjud: *la:ppi* ~ yolg‘onni bo‘rttirib gapiruvchi, *salaqaliq* ~ jiddiy, vazmin, *äpäžäk* ~ gapini eplab gapira olmaydigan yoki ezma kishilarga nisbatan qo‘llanadi, *ä:zmä // miljiñ* ~ ezma, *čä:ltik* ~ maqtanchoq, *jissa:uq* ~ yoqimsiz, *qomaqaj* ~ ovqat ko‘p yeydigan odam, *mamaqaj* ~ kamgap, kamtar, *äräzän* ~ doim kir kiyimda yuradigan kishi, *pa:lan* ~ semiz, ko‘p o‘tiradigan dangasa.

Son. Shevada sonni ifodalovchi so‘zlar kichik fonetik va morfologik xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, tartib son: *birinži*, *tö:tinži*; taqsim son: ikkitadan ~ *i:kkidin*, uchtadan ~ *ü:šdin*; murakkab sonlar: *i:KKI to:qqiš* – 18, *i:KKI sä:kkis* – 16, *tö:t to:qqiš* – 36. *Qu:daya tö:t ta:yaraya a:vqat*, *i:KKI pä:tmis hö:l me:vä*, *i:KKI pä:tmis qurya:q me:vä*, *bi pä:tmiskä tö:t to:qqiš kü:lčä*, *ta: bi pä:tmiskä i:KKI to:qqiš qa:tlama qila:sa*, *o:ladi*.

Olmoshlar. Shevada kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o‘zgarish bilan qo‘llanadi²⁸. Tadqiq etilayotgan shevada boshqa o‘zbek shevalari kabi²⁹ *u(l)*, *bu(l)*, *shu(l)* ko‘rsatish olmoshlari *yer*, *yoq* so‘zlari bilan qo‘shilganda, kuchli fonetik o‘zgarishga uchraydi: U yerda nima ish qilasan? ~ E:dä ni:š qilasa? Bu yerga kim o‘tirdi ~ Be: kim o:tirdi? Kuni bo‘yi shu yerda bo‘ldim. ~ Kü:ni b'läm še:dä o:däm. U yoqqa, bu yoqqa yura bermay, ishingni qil ~ İJa:qa, b'ja:qa jürä be:mäj, i:şinji qi. Shu yoqqa hech kim o‘tmadimi? ~ Ş'ja:qa he:š kim ö:tmädinä?

Ravish. Iqon shevasida ham ravishning barcha turlari qo‘llanadi. Ammo adabiy tildagi ba’zi ravishlar uchramaydi, ba’zilari fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatiladi. *Asta*, *sekin* ravishlari shevada, umuman, ishlatilmaydi, uning o‘rnida *ža:j* (*asta*, *sekin*), *ža:j-ža:* (*asta-sekin*) so‘zi qo‘llanadi. Masalan: Tovushingni chiqarma, sekin gapir. ~ *Da:všiñni čiqa:zma*, *ža:j sö:llä* va h.k.

Shuningdek, *šu zä:mäti* (darhol, shu onda), *lä:zzä* (darrov) kabi payt ravishlari fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatiladi. *Xa:barni ä:şitgän zä:mätim*, *a:jayimni qo:lüma a:däm* (yugurdim). Darrov qayerga ketib qoldi ~ *Lä:zzädä ke:ke:dip qa:dü. jüstäpän* ~ yuzi bilan yiqilish: Tekin bo‘lsa, yuztuban yotib yalaydi. ~ *Tä:kin o:sa*, *jü:stüpän ja:tüp ja:lajdi*. Kecha qorong‘uda oyog‘imning tagidagi to‘nkani ko‘rmay, yuztuban yiqildim. ~ *Ke:čä qara:ŋyida a:jayimni a:stüda:yi* *dö:ŋäkni kö:rmäj*, *jü:stüpän jüqildim*. *tö:täläp* ~ to‘g‘ridan kesib chiqish: *Ba:ydın tö:täläp u:rsaŋ*, *dä:l Jüsüpiň ö:jidin čiqaşa* (Bog‘dan kesib o‘tsang, naqd Yusufning uyi oldidan chiqasan).

xü:jla ~ ancha, *ta://taqa* ~ yana, *äjän* ~ mo‘l-ko‘l, bermalol, *či:ttäk* ~ juda kam, *a:jdaq*, *bä:lädaq* ~ yaxshi, tappa-tuzuk va b.: *A:yaryan o:sa*, *či:ttäk biči* (Qatiq yoki suzma bo‘lsa, *ozgina* ber-chi); *A:jdaq o:qijätsana?* (*Yaxshi* o‘qiyapsanmi); *I:šni bä:lädaq qipti* (Ishni tuzukkina qilibdi); *Ta:püšiň jaxšio:sa*, *äjän jeb ičäsä*, *äjän jüräsa*. (Maoshing yaxshi bo‘lsa, bermalol xarajat qilasani).

II bobning uchinchi bo‘limi “*Fe'l turkumiga xos shakllar*” deb yuritiladi. Iqon shevasida shunday fe’llar borki, ular shu sheva doirasidagina uchraydi, jumladan, *čirqa* (uloqtir), shuningdek, adabiy tildagi so‘zlarning shevadagi ma’nosi o‘zgacha

²⁸ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 69.

²⁹ Шоабдурахмонов Ш. Тошкент области ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 44.

bo‘ladi: *ta:qtī* ~ o‘rdi (sochni), *köläniš* (baxtga erishish), *bašbaqalaš* ~ mo‘ralamoq, *äsiriš* ~ yoqimsiz harakatlar qilish, erkalanish, *ü:rtti* ~ yopdi (ustini ko‘rpa bilan yopdi), *sü:ndi* – uzatmoq (oyoqni sunmoq), *ögdidi* ~ terdi, saraladi (mas., mevalarni) kabi ma’nolarda qo‘llanadiki, ular Iqon shevasidagi fe’llarning eksklyuzivligini tashkil etadi.

Shevada fe’llarning xarakterli xususiyatlaridan biri, qol ~ *qa(l)* ko‘makchi fe’li o‘rnida sol ~ *sa(l)* ko‘makchi fe’lining qo‘llanishidir. Masalan: qo‘ya qol ~ *qo:jä sa(l)*, ayta qol ~ *e:dä sa(l)*, bera qol ~ *bärä sa(l)*, qila qol ~ *qila sa(l)*. Shuningdek, shevada harakatni bajarishga qodirlik ma’nosini ifodalaganda *ol ~ a:(l)* ko‘makchi fe’li o‘rnida *bil ~ bil* ko‘makchi fe’li qo‘llanadi: ishlay oladi ~ *i:släj bilädi*, ko‘ra oladi ~ *kö:rä bilädi*, so‘zlay oladi ~ *sö:lläj bilädi* kabi

O‘tgan zamon fe’lining sintetiklashgan shakllari. O‘tgan zamon fe’lining sintetiklashgan shakli “*so ‘z asosi +(-gän) + yo ‘q modal so ‘zi + shaxs-son affiksi*” dan iborat bo‘ladi va unda singarmonizm buziladi, Y. D. Polivanov termini bilan aytganda “sinish (lomaniye slova)³⁰” yuz bergan: *bilgäjo:qma*, *bilgäjo:qsa*, *bilgäjo:q*, *bilgäjo:qmüs*, *bilgäjo:qsilar*, *bilgäjo:q*.

Bu tuslanishning *bilgä(n)* qismida old qator, *jo:qma* qismida orqa qator unlilar uyushgan va ular o‘zaro zidlangan, lekin u nutq jarayoniga xalal bermaydi.

O‘tgan zamon fe’lining analitik shakllarida **-gan edi** ~ *gäni:di* // *käni:di* // *qani:di* // *yani:di* affikslar qatnashadi: *Mäši:nä a(l):yani:düm*, *šuña bä:rini a:jlantirip kä:dim*. *Sillärdin sä:l a:ldin kä:gäni:dik*. *To:jya bi a:j a:ldin e:tkäni:di*. *Šunda, me:η a:yamdin jaman qo:rqqani:dün*.

Adabiy tildagi o‘tgan zamon fe’lining -*b//ib* affiksli ravishdosh + *edi* to‘liqsiz fe’li orqali hosil qilinadigan shakli Iqon shevasida amalda yo‘q. Shu shakl ma’nosiga “fe’l asosi (-di)+ *i:di*” tipidagi analitik shakl mos keladi. Qiyoslang: borib edim – *bardi:düm*. Tuslanishi: *kördi:dim*, *kördi:din*, *kördi:di*, *kördi:dik*, *kö:rđi:dinär*, *kördi:di*.

O‘tgan zamon fe’lining (-*r*, -*är*, -*ar*)+*edi* shakli Iqon shevasiga xos emas (lekin O‘zbekistonda ta’lim olib kelgan ba’zi shaxslar nutqida uchrab qoladi). Bu shaklning Iqon shevasida mazmun ekvivalenti *-s // as // äs + i:di* formantli shakli qo‘llanishi xarakterlidir. Uning faqat bo‘lishli shakli qo‘llanadi:

№	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>ba:rasi:düm</i>	<i>ba:rasi:dinq</i>
II shaxs	<i>ba:rasi:din</i>	<i>ba:rasi:dinär</i>
III shaxs	<i>ba:rasi:di</i>	<i>ba:rasi:di</i>

Qu:mri xa:laminq ba:yida rasa: qaraşö:rik, sara:lri ta:l o:losi:di. Qii:sta tää:pägä ciiqip, to:ηip qa:yučaj sii:jpançiq o:jnasi:dinq. Sän, ti:n be:mäsäñnar mä:htäpkä ba:rmajma dep jiyla:si:jdinq kabi.

Shu shaklda ifodalangan ma’noning bo‘lishsiz shakli esa **-mä:j** affiksi +*do:n+i:jdü* formantli shakl bilan ifoda qilinadi. Tuslanishi:

³⁰Поливанов Е. Д. Образцы не-иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка. Говор города Туркестана // Известия АН, 1929. – С. 518.

